


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent — 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari.....	4
1.2.3.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	9
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	10
2.3.2.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.3.	60220500 – <i>Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)</i> bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasining tuzilishi	10
	Bibliografik ma‘lumotlar	12
	Kelishuv varog‘i	13

1. 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining tavsifi

60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi – gumanitar fan sohasidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, davlat umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, va professional ta‘lim muassasalarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalarda;

- ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari ma‘naviy-ma‘rifiy va targ‘ibot markazlarida;

- axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ommaviy-axborot muassasalari, turli tadbirkorlik sub‘ektlari tashkilotlarida;

- fan va madaniyatning turli sohalari, davlat muassasalari, mamlakat va xalqaro faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan nodavlat va davlat tashkilotlarida;

- o‘rta boshqaruv tizimida (mahallalar);

- nashriyotlarda muharrir va noshirlik ishlari;

- ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish faoliyatida;
- davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat muassasalari, texnikumlarda kompleks masalalarni yechish.

60220500 – *Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va professional ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarida kompleks masalalarni echish huquqiga ega bo'ladi.

• 1.2.3. 60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ma'naviy va ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *konsalting xizmati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

1.2.4. 60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka doirasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonida turkiy xalqlar falsafiy, madaniy merosini o'rganish, ularning komil inson tarbiyasiga oid g'oyalarini, xalqlar tarixini bilish, ular ma'naviy madaniy merosini asrash va saqlashning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirish;

- mediya makondagi kiberboulling (axborot xurujlari)ga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish va bilim bilan ularga qarshi kurash metodologiyasini egallash;

- ommaviy madaniyat va kosmopolitizmning mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, milliy an'analarni zamon ruhiga moslashtirish va ommalashtirishda yangi texnologiyalardan foydalanish;

- yangi O'zbekistondagi islohotlarning mohiyatini tushunish, inson qadri g'yasining mohiyatini aholi turli qatlamlari ongiga etkazish va o'quvchilarda dahldorlik tuyg'usini shakllantirish;

- korrupsiya jamiyatning ijtimoiy ma'naviy inqirozi sifatida rivojlanishining oqibatlarini bilish va ularga qarshi kurashning takomillshgan mexanizmlarini ishlab chiqish;

- mahallalarda temir daftarga kiritilgan yoshlar bilan individual ma'naviy-axloqiy tarbiyiy suhbat o'tkazish;

- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarining mohiyatini ochib berish;

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish;

- boshqaruv jarayonini tizimli tashkil etish (maktab direktori, direktor o'rinbosari, o'quv bo'limi boshligi, targibotchi);

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- tashkilot faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qullash orqali boshqarish;

- ARMda sohaga tegishli axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- tashkilot va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimalallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirish va ularni boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirishni tizimli tashkil etish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi bug'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonining sifatini boshqarish;

- tashkiliy boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy iqtisodiy samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishda hamda qarorlarning muqobil variantlarini tanlab olish va ularning ahamiyatini asoslashda ishtirok etish;

- turkiy xalqlar va jahon xalqlari ma'naviy merosini o'rganish va ommalashtirishga oid turli mushoiralar, ma'rifiy suhbatlar, kitobxonlar tanlovlari, festivallar tashkillashtirish va boshqarish;

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ma'naviy targ'ibot jarayonlarini tashkil etishda resurslardan foydalanishni rejalashtirish, favqulotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- mehnat jarayonida jismoniy va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodik tadbirlarni ishlab chiqish va ularni tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lish;

- ma'naviy targ'ibot jarayonlarining ijrochilari jamoasi tashkil qilish va ular faoliyatini rag'batlantirish, fikrlar plyuralizmi (xilma-xilligi) sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va ularning mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi bo'yicha olib boriladigan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- jamoada sog'lom turmush tarziga amal qilishning mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkilotga (umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari, texnikumlarda ta'lim yo'nalishi) investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- bajarayotgan faoliyati buyicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy tekshirish institutlari va markazlarda kichik ilmiy xodim sifatida sohaga oid falsafiy ilmiy matnlarni tahlil qilish, ularni ilmiy muloqotga olib kirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy- texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- sohaga oid muzeylarda kichik ilmiy xodim sifatida ishlash va ish jarayonini tashkil qilish;

- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha ilmiy sharhlar tayyorlash, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy konferensiyalarni tashkillashtirish, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirok etish;

- ilmiy-tadqiqot sohasiga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;
- sohaga oid muammoli mavzular bo'yicha ilmiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, sohaga oid adabiyotlarning mazmunini ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot jamoasida kasbiy faoliyatini takomillashtirish maqsadida ustoz-shogird tizimini joriy etish;
- ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha xulosalarni amaliyotga tadbiiq etish.

Konsalting (maslahat) xizmati faoliyatida:

- tashkilotning faoliyatini takomillashtirish, yangi g'oyalarning afzalligiga ishonchni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, adabiyotlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish va ularga munosabat bildirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;
- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting (maslahat) xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

2. 60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasining asosiy omillari, texnologik madaniyat, madaniyatning axborotlashuvi, etnomadaniyat va uning shaxs kamolotidagi o'rni, etnomadaniy turizmning ma'naviy kamolot omili, yangilanayotgan O'zbekistonda madaniyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bilish va ularni targ'ib qilish;
- o'zbek va rus tillarida fikrni erkin bayon etish, OAVdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va munosabat bildirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanish;
- diniy bilimlarning tarbiyaviy mohiyatini tushunish, din, din falsafasi, dinshunoslik, teologiya, teosofiya, taqvodorlik, tushunchalarining mohiyati, dinning tarixiy ildizlari va funksiyalari, milliy dinlar, buddaviylik va xristian dini tarixi va falsafasi, islom dini tarixi va falsafasi, tasavvuf falsafasi, islom qadriyatlari va ma'rifati, diniy fundamentalizm va radikalizm, missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalar, zamonaviy diniy harakatlar va sektalar, sekularlashuvning maqsadini, dunyoviy va diniy bilimlar mutanosibligiga erishishning ahamiyatini bilish;
- pedagogik mahorati shakllangan bo'lishi, pedagogik improvizasiya vapedagogik texnologiyalardan foydalana olish;
- muloqot jarayoni ishtirokchilarining psixologik ruhiy holatini kuzatish, ular xulq atvoru va fikrlash uslubidagi anomal belgilarni aniqlash, ijtimoiy jarayonlardagi muammoli vaziyatni o'z vaqtida idrok etish va tegishli chora ko'rish odamlar bilan individual muloqot qilish, jamoa ruhini qo'llab quvvatlash, global jarayonlarga individual yondashish *haqida tasavvurga ega bo'lish.*

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- egallangan bilimlardan boshqaruv faoliyatini tashkil etishda tayanish, muomala madaniyati me'yoriga rioya qilish va vatan ravnaqiga munosib hissa bo'ladigan natijalarga erishish;
- dastlabki falsafiy qarashlar tarixi, Misr, Yunon, Hind, Xitoy, Turon miflari, falsafa va din, falsafa va san'atning o'zaro aloqasi, falsafaning madaniyatlar tizimidagi o'rni, mif va mifologizatsiya dialektikasi, prognozlashtirishning mohiyati, global jarayonlarning inson hayotiga ta'sirini bilish;
- nutq mahorati, fikrni ifoda etishda ohang va belgilarning roli, bilimning nutq ravonligini taminlashdagi ahamiyati, so'zlarni bilish va ulardan fikr ifodasida foydalanish;
- din falsafasining mohiyati va yo'nalishlari, falsafiy teologiya, Sharq va G'arb faylasuflarining diniy-falsafiy qarashlari, din ontologiyasi va gnoseologiyasi, din semiotikasi, din antropologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi, din fenomenologiyasi, sekulyarizatsiya jarayoni, sekulyarizatsiya jarayonining jahon dinlariga ta'siri, dunyoviylik va diniylikning mutanosibligi, O'zbekistonda dunyoviylik va diniylik mutanosibligini ta'minlashdagi islohotlar, o'zgarishlarning tahlili;
- tarbiyaning mohiyati, predmeti va vazifalari, tarbiya usullari va ta'lim fenomenologiyasi, ta'lim falsafasi ontologiyasi va gnoseologiyasi, ta'lim falsafasining evolyutsiyasi, Qadimgi sivilizatsiyalarda tarbiya va ta'limning shakllanishi va rivojlanishi, Antik sivilizatsiyada tarbiya va ta'lim, Sharq tarbiya ta'lim paradigmalari, Yevropa ta'lim institutlarining evolyutsiyasi, XV-XVIII Sharq va G'arb ta'lim fenomenologiyasi, XIX asr va XX asr dunyo ta'lim paradigmasi, XX asr O'zbekistonda tarbiya va ta'lim yo'nalishlari;
- barqaror taraqqiyot va globallashuv falsafasining mohiyati, barqaror taraqqiyot strategiyasining iqtisodiy mexanizmlari, farovonlik va ijtimoiy ekologik omillari, ta'lim tizimi islohotlari, sog'liqni saqlashning ahamiyati, sportning globallashuvi, adabiyot va san'at sohasidagi yuksalish ko'rsatkichlari, mustahkam oila instituti, aholining ijtimoiy himoyasi va gerontologiya, mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya va demografiya jarayonlarining barqarorlik va globallashuvga ta'siri;
- falsafa tarixidagi ijtimoiy, axloqiy, siyosiy g'oyalarning mohiyati, qadimgi mutafakkirlar talimotlarining fan taraqqiyotidagi roli, O'rta asr teologiyasi, Uyg'onish davri dialektikasi, panteizmi va antroposentrizmi, Yangi davrning bilish metodologiyasi, XX asr pozitivizmi postpozitivizmi, ekzistensializmi iste'mol madaniyati, XXI asr mutafakkirlarining hayot falsafasi;
- falsafiy antropologiyaning mohiyati, insonning paydo bo'lishiga oid diniy ilmiy yondashuvlar, possionarlik, subpossionarlik va muvofiq odamlar haqidagi ta'limot, inson haqidagi biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari, falsafiy antropologiyaning inson haqidagi fan sifatida rivojlanishi, uning predmeti va funksiyalari, hayotning ma'nosi va unda insonning vazifalari, hayotni tark etish bosqichlari;
- sharq (arab/fors) tillarini bilishning moddiy ma'naviy merosni o'rganishdagi ahamiyati, arab/fors imlosi va fonetikasi, arab/fors tili va eski o'zbek tili imlosi, arab/fors imlosidagi falsafiy matnlarni o'qish va tarjima qilish, buyuk mutafakkirlarning arab/fors imlosidagi g'azallari, asarlaridan namunalar o'qish, XX asrda boshida Turkistonda nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalardan parchalar o'qish;
- ijtimoiy falsafaning mohiyati, funksiyalari, jamiyatning paydo bo'lish haqidagi ilmiy va falsafiy qarashlar, iqtisodiy va ma'naviy ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish, mulk va xususiy mulk, manfaat va ehtiyoj dialektikasi, ijtimoiy tabaqalanish va ijtimoiy harakatchanlik nazariyasi, jamiyat va tabiat birligi;
- turkiy xalqlarning shakllanish tarixi, qadimgi yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi, Turon - Turkiston tushunchasi, buyuk turkiy xalqlar hayoti, jahon madaniyatining turkiy

davlatlar shakllanishiga ta'siri, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining tabiiy ilmiy, falsafiy qarashlari, Uyg'onish davri mutafakkirlarining gumanistik g'oyalari, XVIII-XIX asr mutafakkirlari qarashlarining mohiyati, jadidchilarning marifatparvarlik g'oyalari, XX-XXI O'zbek falsafi, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Dog'iston, Boshqirtiston, Turkmaniston, Qirg'iziston milliy falsafasi, turkiy davlatlarining dunyo sivilizatsiyasidagi roli;

- ontologiya va bilish nazariyasining mohiyati, falsafiy ontologiya, fizik ontologiya, gen ontologiyasi, tibbiyot ontologiyasi, etika ontologiyasi, substrat, substansiya, materiya, harakat, makon va vaqtning o'zaro aloqadorligi, borliq, ijtimoiy vaqt va davr ruhining dialektikasi, energetizm fenomeni, rivojlanishning tiplari, harakatning shakillari, makon va vaqtning topologik va metrik hossalari, dinamik va statik konsepsiyalari, rivojlanishning qonun va kategoriyalari, olamning chekliligi va cheksizligi, universal kosmik gologramma, qizil siljish, torsion maydonlar, in'ikos nazariyasi, dunyoni bilishda haqiqat va amaliyot dialektikasi, bilishning darajalari, ongning strukturasi va funksiyalari, ijtimoiy bilish metodlari va metodologik yondashuvlar, su'niy intellekt va virtual reallik, dialog, diologizatsiya va diologizm, ezoterik ta'limotlar tarixi, okkultizm va spiritualizm;

- mantiq tarixi va nazariyasining mohiyati, tushuncha, mulohaza, xulosaning fikr izchilligini ta'minlashdagi ahamiyati, mulohazalarning modalligi, formal va noformal matniq, dialektik va matematik mantiq, mantiq va semantika, mantiq va ritorikaning ahamiyati, ilmiy nazariyaning mantiqiy asoslari, savol- javob mantiq'i;

- ong falsafasining mohiyati, ijtimoiy ong va ijtimoiy muhit dialektikasi, qadimgi dunyo va O'rta asrlarda ong falsafasiga oid qarashlar tarixi, Uyg'onish davrida ongga oid qarashlar evolyutsiyasi, ong falsafasida ong-tana birligi, ongga oid dualistik yondashuvlar, ong va miya ayniyliigi nazariyasi, funksionalizm – ong haqidagi ta'limot, ong muammosiga nisbatan no-reduktiv monizm nuqtai-nazaridan yondashuv, ong falsafasida psixo-fizik sababiyatlar, ong falsafasida "o'zga onglar" nazariyasi;

- tabiatshunoslikning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli, dunyoning dastlabki ilmiy manzarasi, O'rta asrlar tabiatshunosligi, Uyg'onish davri tabiatshunosligida fan inqilobi, XVII va XIX asrlar tabiatshunosligining yo'nalishlari, dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida tabiat muammosi, hozirgi zamonda dunyoning astronomik manzarasi, XXI asr tabiatshunosligi, harbiy texnika va texnika falsafasi;

- siyosat falsafasi shakllanishining tarixi, Sharq va G'arbda siyosiy boshqaruv haqidagi qarashlar dinamikasi, siyosiy hokimiyatning mohiyati, tiplari, siyosiy liderning hokimiyatni boshqarishdagi roli, siyosiy institutlar, jamiyatning siyosiy tizimida saylov instituti, siyosiy ong va siyosiy madaniyat dialektikasi, siyosiy mafkura, siyosiy tizim va jarayonlar, siyosiy institutlar, siyosiy konfliktlar siyosiy makonda axborot urushi;

- ta'lim va tarbiya falsafasining shaxs komolotidagi o'rni, tarbiya usullari va vositalari, ta'lim va tarbiya jarayoni shakllanishining asosiy bosqichlari, ta'lim fenomenologiyasi, ta'limni insonparvarlashuvi, ta'lim paradigmatlari;

- falsafa va fan metodologiyasining mohiyati, klassik, noklassik, postnoklassik fan taraqqiyoti, fan va ilmiy bilish dinamikasi, tabiatshunoslik va diniy bilimlarning uzoqlashuv va yaqinlashuv davrlari, XXI asr fanining dolzarb muammolari, hozirgi zamon fani metodologiyasi;

– kasbiy-mehnat faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish haqida **ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalarining umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan

fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyot (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: faylasuf, ijtimoiy tahlilchi.

2.3.2. 60220500 – Falsafa (yo’nalishlar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar:

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4860	162
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60220500 – Falsafa (yo’nalishlar bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4860	162	
1.01	RAT1104	Raqamli axborot texnologiyalari	120	4	1
1.02	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MAN1204	Ma'naviyat asoslari	120	4	2
1.04	URT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	IPP1504	Ijtimoiy pedagogika	120	4	5
1.08	UPP1604	Umumiy psixologiya	120	4	6
1.09	FAK1106	Falsafaga kirish	180	6	1
1.10	FAT1116	Falsafa tarixi	480	16	1,2,3
1.11	SHT1116	Sharq (fors,arab) tili	480	16	1,2,3
1.12	RIT1204	Ritorika	120	4	2
1.13	IJF1206	Ijtimoiy falsafa	180	6	2
1.14	TTF1304	Tarbiya va ta'lim falsafasi	120	4	3
1.15	MTN1306	Mantiq tarixi va nazariyasi	180	6	3
1.16	TXF1318	Turkiy xalqlar falsafasi	540	18	3,4,5
1.17	OBN1316	Ontologiya va bilish nazariyasi	480	16	3,4,5

1.18	BTG1404	Barqaror taraqqiyot va globallashuv falsafasi	120	4	4
1.19	FAA1404	Falsafiy antropologiya	120	4	4
1.20	DIF1504	Dinlar falsafasi	180	6	5
1.21	ONF1606	Ong falsafasi	180	6	6
1.22	TZK1706	Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari	180	6	7
1.23	SIF1706	Siyosat falsafasi	180	6	7
1.24	FFM1706	Falsafa va fan metodologiyasi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	690	23	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

falsafa, dunyoqarashning shakllari, Ontologiya va bilish nazariyasi dialektika qonun va kategoriyalari, metafizika metodi, ontologiyaning mohiyati, borliq shakllari, virtual borliq, substrat, substansiya va materiya tushunchalari, olam va odam evolyusiyasi, bilish nazariyasi, haqiqat va amaliyot dialektikasi, ijtimoiy falsafa, nutq mahorati, falsafa tarixi, dinlar falsafasi, axloq falsafasi, qadriyatlar falsafasi, falsafiy antropologiya, inson borlig'i, dunyoning ilmiy manzarasi, falsafa qonun va kategoriyalari, hayot falsafasi, mantiq tarixi va nazariyasi, sillogizm nazariyasi, dialektik va matematik mantiq, argumentlash nazariyasi, argumentlarning turlari, taraqqiyot falsafasi, nafasat falsafasi, go'zallik falsafasi, madaniyat va sivilizatsiya, tarix falsafasi, Turkiy xalqlar falsafasi metod va metodologiya, dunyoning ilmiy manzarasi, barqaror taraqqiyot, globallashuv falsafasi, ong falsafasi, siyosat falsafasi, falsafiy antropologiya, fan metodologiyasi, pozitivizm va neopozitivizm falsafasi, texnika va texnologiya taraqqiyoti, ma'naviy faoliyat, tushunish va tushuntirish falsafasi, barqarorlik va beqarorlik dialektikasi, texnika falsafasi, texnogen sivilizatsiya, kompyuter savodxonligi, turkiy xalqlar falsafasi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor I. Madjidov

2023 yil « _____ »

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
universiteti

Direktor Sh. Yakubov

Rektor R. Xalmuradov

2023 yil « _____ »

2023 yil « _____ »

M.O'.



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

Rektor G. Rixsiyeva

2023 yil « _____ »

M.O'.

